

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Tarix fakulteti Milliy g'oya manaviyat
asoslari va huquq talimi yo'nalishi talabasi
Ismoilov Asadbek*

Annotatsiya: Huquq amalga oshirilgan taqdirdagina u mazmun kasb etadi jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Agar huquq amalga oshirilmas ekan, oxiroqibatda o'z mazmun-mohiyatini yo'qotadi. Davlatda shunchaki, qonun yoki boshqa turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi orqali tartib-intizomni saqlay olmaydi, agarda normalarni amalga oshirish choralari tadbirlari ko'rib chiqilmagan bo'lsa.

Kalit so'zlar: Huquq normasi talablariga rioya qilish, huquq normasida ifodalangan majburiyatlarni bajarish, subyektiv huquqdan foydalanish, huquqni qo'llash, jinoyat protsessual huquq, konstitutsiyaviy huquq.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquqiy fanlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'nno-mazmuni hamda mohiyatini uzlusiz o'rganish huquqiy fanlarni o'qitish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. 2018 yil 22 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturida ham yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Shuningdek Prezidentimizning 2017 yil 2 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»-gi PF-4947-son Farmoni e'lon qilindi. Unda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi aniq ko'rsatilgan. 2018 yil 13 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qarori asosida yuridik ta'lim olishda keng imkoniyatlar yaratilishi belgilangan edi. Ushbu Qarorni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 iyuldag'i 573-sonli qarori qabul qilinganligi va ushbu qaror asosida "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik kollejlari bitiruvchilarini Toshkent davlat yuridik universitetiga bakalavriat bosqichiga qabul qilish to'g'risida"gi Nizom va har bir viloyatda yuridik kollejlari tashkil qilinganligi yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarga misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Huquq normalari hayotda amalga oshirilsagina, u mazmun kasb etadi va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo‘ladi. Agarda huquq ijtimoiy voqelikda namoyon bo‘lmasa, o‘z funksiyalarini to‘laqonli ravishda bajara olmaydi. Amalga oshirish so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib («gealis»), «moddiylashtirish» va tatbiq etish ma’nosini anglatadi. Hozirgi paytda realizatsiya qilish biron-bir rejani, dasturni, loyihani amalga oshirish degan m a’noni anglatadi. Huquq nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lsa ham, u kishilarning faoliyatlarida faol xulqi va yurish-turishlarida, ularning moddiy va ma’naviy qadriyatlardan foydalanganlarida tatbiq etilib moddiylashadi.

Huquqni amalga oshirish - bu davlat tomonidan yuridik jihatdan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning amalga oshirilishi bo‘lib, huquq normalarini kishilar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tatbiq etilishidir. Huquq prinsiplari va normalari faqat hayotga tatbiq etilgan, huquq subyektlari harakatlarida amalga oshgan taqdirdagina huquq oliy ij’timoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, huquqiy jamiyatda har bir fuqaro, davlat organi va mansabdar shaxs huquqqa rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Huquqni amalga oshirish bu – uni hayotga tadbiq etish ekanligini bilgan holda, huquqni amalga oshirishning ham o‘ziga xos tomonlariga, insonlar harakatlarida kechadiga xulq atvorlariga ko‘ra, olimlar uni to‘rt xil shakli mavjudligi haqida g‘oyalarini ilgari suradi. Huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash nihoyatda muhim, bu masalada turlicha qarashlarga ega. “Ammo shuni ta’kidlash kerakki, bunday turli xil tasniflar ushbu hodisaning muammoli va murakkab xususiyatini ko‘rsatadi. Bunday muammolardan biri, masalan, huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash mezonini noto‘g‘ri, noto‘g‘ri tanlashda yotadi, buning natijasida huquqni amalga oshirishning mohiyati noto‘g‘ri tushuniladi. Terminologik noaniqlik ham mavjud. Shunday qilib, ba’zi mualliflar qonunga rioya qilish, ijro etish va undan foydalanish deganda huquqni qo‘llash shakllarini nazarda tutsalar, boshqalari buni amalga oshirish usullari deb ta’kidlaydilar”. Masalan, M.F. Orzix huquqni amalga oshirishning foydalanish, ijro etish, rioya qilish va qo‘llash kabi shakllarini ajratishni taklif qiladi. Qiziqarlisi, B.V. Sheindlin “amalga oshirishning beshta shaklini o‘z ichiga oladi” – deydi. Bu tasnif mutlaqo boshqacha: subektlarning huquqiy holatini amalga oshirish, taqiqlangan harakatlardan tiyilish, vakolatli shaxslarning o‘z vazifalarini bajarishi va vakolatlarini amalga oshirishi, ishtirokchilarning subyektiv huquq va majburiyatlarini amalda amalga oshirish, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash.⁶ Yondashuvlarning turlicha bo‘lganligi uchun huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash dolzarb.

Huquqni amalga oshirish shaklli:

- Huquqni amalga oshirishning normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan qoidalarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra:

- huquqiy faoliyat davomida amalga oshiriladigan umumiy vazifalar va tamoyillar o‘z ifodasini topgan qonunlar hamda moddalarning muqaddimalarida ko‘zda tutilgan umumiy ko‘rsatmalarни tatbiq etish;
- huquq subyektlarining huquqiy maqomini va vakolatlar doirasini o‘rnatuvchi umumiy normalarni tatbiq etish;
- muayyan huquqiy munosabatlarga oid huquq normalarini tatbiq etish.

Huquqni amalga oshirish subyektlariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- individual;
- jamoa tomonidan

Huquqni amalga oshirish shakllari mavjud ekan davlat o‘z huquqiy hayotini tartibga sola oladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qonun qabul qilish bilan hamma shaxslarning erkinligi ta’ minlanmaydi yoki huquqbazarliklarning oldi olinmaydi. Huquqni asl mazmunini anglash uchun amalga oshirish jarayonini kamchiliksiz bajarish kerak. Bizningcha, subyektlarning xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lgan huquqqa rioya qilishga rostan ham asosiy deya qarash mumkin. Chunki, bir huquq subyekti taqiqlangan va muhofaza etuvchi normalarni ongli ravishda buzmadimi, demak bu orqali turli huquqbazarliklar oldi olinadi, shuningdek amalga oshirishning bu shakli jamiyatda barqarorlikni o‘rnatishda ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Lekin, “besh qo‘l barobar emas” deganlaridek, har doim ham aholi huquq normalariga rioya qilavermaydi. Buning sababi sifatida – huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligini ko‘rsatish mumkin. Huquq amalga oshirishning har bir shaklini o‘z o‘rni bor. Agarda faqatgina rioya etish shakli bo‘lib qolgan shakllar mavjud bo‘lmasa, huquq to‘laqonli hayotga tadbiq etilmaydi, fuqarolarning irodasiga singmaydi. Masalan, taqiqlovchi normalarga rioya qilmaydigan shaxslarga, jazo qo‘llash uchun huquqni qo‘llash akti zarur bo‘ladi, shaxslar hech qanday huquq va erkinliklaridan foydalanmay faqatgina qonunga rioya qilib yashay olmaydi, bu bevosita demokratianing yemirilishiga olib keladi. Rioya etish ma’lum jihatlari bilan bajarishga bog‘liq. Demak xulosa tariqasida, huquqni amalga oshirish Huquqni amalga oshirish shakllari mavjud ekan davlat o‘z huquqiy hayotini tartibga sola oladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qonun qabul qilish bilan hamma shaxslarning erkinligi ta’ minlanmaydi yoki huquqbazarliklarning oldi olinmaydi. Huquqni asl mazmunini anglash uchun amalga oshirish jarayonini kamchiliksiz bajarish kerak. Bizningcha, subyektlarning xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lgan huquqqa rioya qilishga rostan ham asosiy deya qarash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlar konsepsiysi ishlab chiqilarkan, mavjud davlat apparatining bir qismi sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini ham optimallashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu mavjud tizimning yanada takomillashishi va xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 677-tonli.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 705-tonli qarori.